

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

I.M.Mirziyotov

Z.X.Ro'ziyev

S.M.Dusanov

N.T.Umarov

5 банди.ijro uchun

Muddat: 20 Sentabr 2024

№09-898

24 Avgust 2024

U.T.G'afurov

Rektor





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 20 » avgust

316 -son

Toshkent shahri

**Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari faoliyatini
takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli Farmoni 2-ilovasi 51-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida:

B U Y U R A M A N

1. Oliy ta‘lim, professional ta‘lim muassasalari hamda akademik litseylarda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari tuzilib (jamoatchilik asosida), maslahat kengashi raislariga rahbar maslahatchisi (keyingi o‘rinlarda — rahbar maslahatchisi) maqomi belgilansin.

2. Oliy ta‘lim muassasalarining barcha fakultetlarda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi (jamoatchilik asosida) tashkil etilib, ular Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi tavsiyasiga muvofiq tayinlanishi belgilab qo‘yilsin.

3. Quyidagilar:

Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashi to‘g‘risidagi Namunaviy nizom 1-ilovaga muvofiq;

Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi hujjatlarining yig‘ma jildi 2-ilovaga muvofiq;

Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi hamda dekan maslahatchilarining faoliyatini baholashning namunaviy mezonlari 3-ilovaga muvofiq;

Respublika Xotin-qizlar maslahat kengashi tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim muassasasining birinchi rahbariga bo‘ysunishi qat‘iy belgilab qo‘yilsin.

5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari hamda filiallar direktorlari, akademik litseylar direktorlariga:

Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari, dekan maslahatchilari bo'lgan professor-o'qituvchilarni talaba-qizlar odob-axloqi bilan shug'ullanishga, suhbat qilishga ko'proq vaqt ajratishini ta'minlash maqsadida ulardagi dars yuklamalarini kamaytirish;

faoliyatini baholash mezonlari asosida Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari hamda dekan maslahatchilari uchun ustama haq belgilash;

maslahat kengashi raisini ta'lim muassasasining ilmiy kengashi a'zosi sifatida yiliga ikki marta hisobot berishi tizimini yo'lga qo'yish;

maslahat kengashi raisini ta'lim muassasasidagi ishga qabul qilish bo'yicha komissiya tarkibiga kiritish;

maslahat kengashi raisi bir vaqtning o'zida rahbarlik lavozimida (prorektor (direktor o'rinbosari), dekan, dekan o'rinbosari) ishlamasligi;

yosh farzandi bor talaba-qizlarga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida ta'lim muassasasida "Ona va bola" xonasini tashkil etish va jihozlash;

maslahat kengashi raisi uchun alohida xona ajratish, kompyuter, telefon, internet tarmog'i va boshqa jihozlar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Kasimov), **Respublika Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi** (Sh. Nurullayeva) ikki oy muddatda mazkur buyruq ijrosi yuzasidan o'rganish tashkil etsin va rahbariyatga ma'lumot kiritsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 311-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S. Buzrukhonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



K.Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi Xotin-qizlar
masalalari bo'yicha maslahat kengash to'g'risida
NAMUNAVIY NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Namunaviy nizom (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashning (keyingi o'rinlarda – Kengash) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini belgilaydi va shu bo'yicha ish olib boradi.

2. Kengash xotin-qizlarni ijtimoiy siyosiy qo'llab-quvvatlovchi, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlarida o'z aksini topgan ijtimoiy siyosiy kafolatlarining amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi Kengash hisoblanadi.

3. Kengash tarkibi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, hududiy boshqarmalar boshlig'i, ta'lim muassasalari rektorlari (direktorlari) va filiallar direktorlarining yig'ilish qarorlari bilan tashkil etiladi hamda unga kiritiladigan o'zgartishlar yig'ilish raisi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Kengash qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

5. Kengash o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining me'yoriy hujjatlariga mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Kengash qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik, o'zaro hamkorlik va hurmat, teng huquqlilik, ixtiyoriylik hamda jamoatchilik fikrini hisobga olish tamoyillari asosida faoliyat yuritadi.

II. Kengashning asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar kengashning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish ishlarini hamkorlikda tashkil etadi;

Xotin-qizlarning mehnat jamoalarida, davlat va jamoat boshqaruvi sohasidagi rolini kuchaytirish, ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi maqsadli ishlarni tashkil etishga ko'maklashish va ularning fikrlarini tizimli monitoring qilish;

Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi

bo'lgan ayollarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash ishlariga ko'maklashadi;

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi va tegishli takliflar ishlab chiqadi;

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini monitoring qiladi, zo'ravonlikdan jabrlanganlarni aniqlash, ularni reabilitatsiya qilish, huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyaviy takliflarni vazirlikka kiritadi;

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalani ijtimoiy faollikka yo'naltirish, ular o'rtasida ijtimoiy foydali mehnat turi bilan shug'ullanadigan, ibrat namunasiga ega bo'lgan xotin-qizlarning hayot faoliyatlari va turmush tarzlarini keng targ'ib qilish;

Xotin-qizlar o'rtasida turli ko'rik-tanlovlar va sport musobaqalarini o'tkazish, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzodlarni tanlashda qonuniylik, ijtimoiy adolat, shaffoflik tamoyillariga rioya etilishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

milliy va xalqaro qonunchilikda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga doir hujjatlar, standartlar va talablaning joriy etilishini ta'minlaydi va bevosita ishtirok etadi;

tizimida samarali mehnat qilayotgan ayol xodimlarni Davlat mukofotlariga tavsiya etish bo'yicha taklif kiritadi.

III. Kengashning majburiyatlari

8. Kengash o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshirish;

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi Qonun hujjatlari talablariga rioya etish;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymaslik.

9. Kengash Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

III. Kengashning huquqlari

10. Kengash quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning totuvligi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarni keng targ'ib

etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash yuzasidan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga takliflar kiritish;

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga Kengash vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Xotin-qizlar, ayniqsa yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar haqidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi samaradorligini oshirish maqsadida ta‘lim muassasasida xotin-qizlar o‘rtasida turli ko‘rik-tanlovlar va sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish;

ta‘lim muassasasidagi xotin-qizlar, ayniqsa yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning roziligi bilan ularning uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlari bilan tanishish;

Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish, zarur hollarda ularga davlat organlari va jamoat tashkilotlari mas‘ul xodimlarini hamda mahalla faollarini taklif etish.

11. Kengash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

IV. Kengash faoliyatini tashkil yetish tartibi

12. Respublika Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi:

vazirlik tavsiyasi asosida tasdiqlanadi (jamoatchilik asosida);

har chorakda vazirlikning tegishli ko‘rsatma va tavsiyasi asosida ta‘lim muassasalaridagi Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari faoliyatini o‘rganadi, tegishli xulosa va tavsiyalar berib boradi;

onlayn tarzda har chorak yakuni bo‘yicha Kengash raislari hisobotini eshitib boradi;

yangi tayinlangan Kengash raislarini “ustoz-shogird” an‘anasi asosida malakasini oshirib boradi.

13. Kengashni belgilangan tartibda kengash raisi boshqaradi.

Kengash raisi ta‘lim muassasasi rahbarining tavsiya qilgan 3 va 5 nafar nomzodlari orasidan (rahbar lavozimida bo‘lmasligi kerak), ta‘lim muassasasida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning yashirin ovoz berish yo‘li bilan, ularning uchdan ikki qismining bergan ovozi bilan saylanadi;

Kengash tarkibi har 3 yilda tasdiqlanadi.

Kengash raisi:

Kengash faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

Kengash majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi, majlisga raislik qiladi;

Kengash ish rejalarini, majlis bayonnomalarini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi, majlis Qarorlarining ijrosini nazorat qiladi.

14. Dekan maslahatchilari:

dekan maslahatchilari ta'lim muassasasida xotin-qizlar soni 7 nafardan oshgan har bir fakultetda jamoatchilik asosida tashkil etiladi;

dekan maslahatchilari ta'lim muassasasining Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi tavsiyasi asosida rektor tomonidan tasdiqlanadi va vazifasidan ozod etiladi.

15. Dekan maslahatchilarining vazifalari:

talaba-qizlarning huquqiy madaniyatini va savodxonligini oshirib borish ishlarida faol bo'ladi;

mehribonlik uylarida tarbiyalangan qizlar bilan alohida manzilli ishlarni amalga oshiradi;

ijodkor, ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanishni istagan talaba-qizlar, pedagog-xodimlar bilan hamkorlikni kuchaytiradi;

talaba-qizlar orasida turli noxush holatlar (psixotrop moddalar, jinoyatchilik, o'z joniga qasd qilish, turli oqimlar ta'siriga tushib qolish, odam savdosi)ning oldini olish, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, oila muqaddasligi borasida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda tushuntirish ishlarini muntazam tarzda olib borish, yuqoridagi salbiy xarakteri aniqlangan xotin-qizlarning ro'yxatini ommadan yashirin holatda shakllantirish, ushbu holatdan ta'lim muassasasi rahbariyatini ogoh qiladi;

Xotin-qizlar maslahat kengashi raisiga bo'ysinadi, har oy yakuni bo'yicha amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobot taqdim etadi.

16. Kengash fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

17. Kengashga raisi bo'lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rinbosari bajaradi.

18. Kengash majlisi ish reja asosida har oyda bir marta chaqiriladi;

Kengash raisining tashabbusi yoki kengash a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirish nazarda tutiladi.

19. Kengash majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, mahalla faollari taklif etilishi mumkin.

20. Kengash majlisida qabul qilingan Qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

21. Kengash raisi oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi a'zosi sifatida yiliga ikki marta hisobot beradi.

VI. Kengash raisi maqomi

22. Kengashi raisi rahbar (rektor, direktor)ning "Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi" maqomiga ega.

23. Kengash raisi ta'lim muassasasining birinchi rahbariga bo'ysinadi.

24. Kengash raisi uchun alohida xona ajratish, kompyuter, telefon, internet

tarmog'i va boshqa jihozlar bilan ta'minlash hamda o'qatilgan tartib asosida ish haqiga qo'shimcha ustama belgilash orqali moddiy rag'batlantirib borish choralari ko'riladi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

25. Kengash faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash qonun hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

26. Kengash faoliyati ushbu nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq holda amalga oshirilishi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.

T/p	Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi hujjatlarining yig'ma jildi	
1.	Normativ-huquqiy hujjatlar	1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Oliy Majlis Senatining, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmonlari, vazirlik buyruqlari 2. Ta'lim muassasalarining buyruqlari, kengash qarorlari, topshiriq va ko'rsatmalar
Ta'lim muassasasidagi xotin-qizlar ro'yxati		
2.	Xotin-qizlar ma'lumotlari bazasi	2.1. Ayol pedagog-xodimlar ro'yxati (kafedra, lavozimi, ilmiy darajasi, yoshi, ijtimoiy holati bo'yicha) 2.2. Ayol rahbar va ishchi-xodimlar ro'yxati (lavozimi, ilmiy darajasi, yoshi, ijtimoiy holati bo'yicha) 2.3. Talaba-qizlar ro'yxati (fakulteti, kursi, guruhi, doimiy va vaqtincha yashash joyi, ijtimoiy holati bo'yicha) "Qizlarjon" klubi, to'garaklar, iqtidorli talaba-qizlar va ayol pedagog xodimlar bilan ishlash 2.4. "Qizlarjon" klubi Nizomi 2.5. "Qizlarjon" klubi ish rejasi va ijrosi 2.6. "Qizlarjon" klubi a'zolari ro'yxati 2.7. Talaba-qizlar bandligini ta'minlash bilan bog'iq faoliyat 2.8. Ijtimoiy himoyaga olingan xotin-qizlar bilan ishlash 2.9. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoniga tanlovlar o'tkazish va nomzodlarni tavsiya qilishga doir hujjatlar
Ta'lim muassasasida Xotin-qizlar kengashining yillik ish rejasi		
3.	Ish rejalar va ularning bajarilishi	3.1. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha Kengash Nizomi 3.2. Xotin-qizlar kengashi raisining yillik ish rejasi va ijrosi 3.3. Xotin-qizlar kengashi yig'ilishi bayonnomalari 3.4. Xotin-qizlar kengashi faoliyati bo'yicha yarim yillik va yillik hisobotlar. Ilmiy kengashdagi hisobotlar.
Sport va reproduktiv salomatlik.		
4.	O'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar	4.1. Sport va reproduktiv salomatlik bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar (saytda yoritilganligi) Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish 4.2. Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish (odam savdosi, firibgarlik) bo'yicha o'tkazilgan tadbir (saytda yoritilganligi)

Zo‘ravonlikka qarshi kurashish va Gender tenglik		
		<p>4.3. Zo‘ravonlikka qarshi kurashish va Gender tenglik bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, o‘tkazilgan tadbir (saytda yoritilganligi)</p> <p>4.5. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar</p> <p>4.6. Nizoli oilalar bilan ishlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar</p>
5.	Konferensiyalar, seminarlar	<p>Memorandumlar. O‘tkazilgan konferensiyalar.</p> <p>Seminarlar. Yakka tartibdagi suhbatlar</p>

**Ta'lim muassasalari Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari hamda dekan
maslahatchilarining faoliyatini baholashning namunaviy
MEZONLARI**

T/p	Baholash mezonlari	Qisqacha mazmuni	Ball
1.	Ta'lim muassasasida xotin-qizlar bilan ishlash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yganligi	a) Ta'lim muassasasidagi talaba-qizlarning umumiy ro'yxati bazasini shakllantirganligi (5 ball) b) Oilali, yosh farzandli, ijtimoiy himoyaga muhtoj (Ayollar daftari, Temir daftariga kirgan) ayollar ro'yxati mavjudligi, nogironligi bor (1-, 2- guruh talaba-qizlar ro'yxati), tarbiyasi og'ir (profilaktik hamda probatsiya ro'yxatida turuvchi talaba-qizlar ro'yxati), davlat stipendiyasi sohibalari bo'lgan faol, iqtidorli talaba-qizlar ro'yxati mavjudligi (barchasining elektron shakli) (5 ball) s) Ta'lim muassasasidagi ayol pedagog va xodimlarning umumiy ro'yxati, ularning ijtimoiy holati to'g'risidagi ma'lumotlari	15
2.	Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, dekan maslahatchisining ish rejasi ijrosi holati	a) Ish reja ijrosi bo'yicha har chorak yakunidagi ma'lumotning mavjudligi (5 ball) Talaba-qizlar bilan manzilli ishlash bo'yicha grafik-reja mavjudligi (yillik, har oyda va uning ijrosi holati (foto albomlar bilan) (5 ball)	10
3.	Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash	a) Ta'lim muassasasidagi yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar bilan olib borilgan ishlar (ularni qo'llab-quvvatlash jarayonida hamkor tashkilotlar bilan olib borilgan ishlar) (5 ball) b) Ta'lim muassasasidagi nogironligi bo'lgan xotin-qizlar bilan (ijtimoiy- huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash) olib borilgan ishlar (5 ball)	15

		s) "Qizlarjon" klubi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, klubning faol faoliyat yuritishi (5 ball)	
4.	Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish.	a) Ta'lim muassasalarida oilalarni mustahkamlash, erta nikoh va oilaviy ajralishlarning oldini olish borasidagi faoliyati (5 ball) b) Oilalardagi muammolarni o'rganish, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan ishlash jarayonlari (5 ball)	10
5.	Xotin-qizlar o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy tadbirlarni tashkil etishdagi faoliyati	a) Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar; Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar (5 ball) b) Xotin-qizlar sportini rivojlantirishdagi faoliyati; xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini saqlash yuzasidan olib borgan faoliyati (5 ball)	10
6.	Tashkiliy-metodik faoliyati	a) Talaba-qizlarning murojaatlarini o'rganish tizimini yo'lga qo'yilganligi (5 ball) b) Talaba-qizlar o'rtasida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazganligi, ularni tahlil qilish va mavjud muammoni bartaraf etishdagi faoliyati (5 ball)	10
7.	Ijtimoiy-kasbiy moslashuv	a) Maslahat kengashi raisining kasbiy etiket qoidalarga mos ravishda muomala qilishi, kiyinishi (5 ball) b) talaba-qizlarni va pedagog-xodimlarni ishonchiga kira olishi (5 ball)	10
8.	Jamoat ishlaridagi faolligi	a) Ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, umumxalq bayramlarini yuqori saviyada tashkil etishdagi faolligi (5 ball) b) Ta'lim muassasasida tashkil etiladigan boshqa tadbirlardagi faolligi (5 ball)	10

9.	O'z ustida ishlashi va tajriba almashishi	a) Ta'lim muassasalarida xotin-qizlarni ilm-fanga yo'naltirish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, gender tenglik, xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro va milliy konferensiyalar, respublika va hududiy seminarlar, o'quvlar tashkil etib borishi (5 ball) b) Ta'lim muassasasi saytida, ijtimoiy tarmoqlarda, OAVlarida tizim ishini yoritishi (5 ball)	10
Jami			100 ball

Izoh: Ushbu baholash mezonlari Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari, dekan maslahatchilari faoliyatiga baho berish, ijobiy natijaga erishilganda ularga turli rag'batlantirishlarni qo'llash, mukofotlarga tavsiya qilish, salbiy natija ko'rsatganda tegishli intizomiy chora ko'rishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublika Xotin-qizlar maslahat kengashi

TARKIBI

1. Nurullayeva Shoira
Kushnazarovna – Urganch davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
fakulteti Tarix kafedrası dotsenti,
*Respublika Xotin-qizlar
maslahat kengashi raisi*
2. Tursunova Bibirajab – Jizzax politexnika instituti
Axborot-resurs markazi direktori
o'rinbosari
3. Yusupova Ra'noxon
Kasimdjanovna – Andijon mashinasozlik instituti
Avtomobilsozlik fakulteti
Umumtexnika fanlari kafedrası
katta o'qituvchisi
4. Uzokova Gulnoza
Saydullayevna – Qarshi davlat universiteti
Umumiy fizika kafedrası
professori v.b
5. Xamzayeva Dilfuza
Samarovna – Termiz davlat universiteti
Turizm va mehmonxona
xo'jaligi kafedrası katta
o'qituvchisi